# Termitlar bilan zararlangan hududlar raqamlashtirilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 16-noyabrdagi “Respublika termitlarga qarshi kurashish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-sonli qarori va 2024-yil 4-noyabrdagi “Respublikada termitlarga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 735-sonli qarori asosida Respublikada termitlarga qarshi kurashishni tizimli asosda tashkil etish, aholi turar joylari, ijtimoiy soha obyektlari va ma’muriy binolar, tarixiy obidalar hamda ochiq yer maydonlarida termitlar tarkalishining oldini olish choralarining samaradorligini tubdan oshirish, shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda Respublikada termitlar tarqalishini monitoring qilish axborot tizimi ishlab chiqilib joriy etildi. (www.termit.academy.uz)




Mazkur axborot tizimi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Kadastr agentligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi bilan birgalikda termitlardan zararlangan binolar, ularning joylashuvi va tegishliligi to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarni shakllantirish hamda yangilab borish, shuningdek, termitlar tarqalgan hududlarning kengayishini monitoring qilib borish imkonini beradi.




Hozirda Respublika bo‘ylab termitlardan zararlangan deb topilgan obyektlar 19,7 mingga yaqin xonadon, 98 ta ijtimoiy soxa ob’yekti, 75 ta ma’muriy bino, 46 ta tarixiy obida xamda 1 100 gektar ochiq yer maydonlari Respublika termitlarga qarshi kurashish ilmiy ishlab-chiqarish markazining hududiy vakillari tamonidan o‘rganib chiqilib termitlarning tarqalishini ilmiy asoslangan holati aniqlanib axborot tizimiga kiritib boriladi.



Termitlardan zararlanish holatlari yildan-yilga ko‘payib borayotganligi, zarar oqibatlarini bartaraf etishda va xonadonlarni avariya holatiga kelib qolishining oldini olishda hamda termitlarga qarshi kurashish tadbirlarini samaradorligini oshirish maqsadida faoliyatni raqamlashtirish hududlarda termitlarning tarqalish darajasini monitoring qilish natijalaridan kelib chiqib, tuman (shahar)lar kesimida har bir mahallani “yashil”, “sariq” va “qizil” toifaga ajratish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Axborot tizimidagi toifalarga ajratilgan hududlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mazkur hududlarda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berish, bino va inshootlarning ixtisoslashishini o‘zgartirish, qayta qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish hamda loyiha hujjatlarining arxitektura qismini kelishish bo‘yicha xulosa berishda foydalaniladi.